

## Donishmandlik da'vati – ustoz ziynati

Har dushanba kuni soat 15.00 da ma'naviyatga oshna, ma'rifatga tashna qalblarning yayrashi, oziqlanishi TIQXMMning madaniyat saroyida odatiy tusga aylangan. "Ibratli ijodkor insonlar" ruknida olim, shoir, yozuvchi va san'atkorlar bilan ijodiy uchrashuvlar g'oyat maroqli.

15 yanvar kuni o'tkazilgan ma'naviy tadbir ustazoda san'atkor va yirik tarixchi olim Hojiakbar Hamidov va fizika-matematika fanlari nomzodi Hamidjon Tohirjonovlarning qalamiga mansub bo'lgan "Donishmand hofiz" nomi bilan "O'zbekiston" NMIUda chop etilgan yodnoma kitobining taqdimotiga bag'ishlandi.



Ushbu kitob ko'p yillar mobaynida o'zbek qo'shiqchilik madaniyatiga sezilarli hissa qo'shgan taniqli san'atkor, O'zbekiston xalq hofizi Faxriddin Umarovning hayotiy va ijodiy faoliyatiga bag'ishlangan. Donishmand san'atkorimizning hayoti silliq kechmagan, unga qilingan qarshiliklar bois u turli dovonlardan chidam va sabr-toqat bilan oshib o'tgan. Kitob bilan tanishish asnosida shunga amin bo'lasiz.

Dasturga ustoz Rahimboy Jumaniyozov moderatorlik qildi. Unda O'zbekiston va Qoraqalpog'istonda xizmat ko'rsatgan artist Xayrulla Lutfullaev, iste'dodli shoir va oliy toifali diktora, "Turon" fanlar akademiyasining akademigi Muslimbek Yo'ldoshev, iqtidorli hofiz Hojimurod Umarov, taniqli hofiz Abdullajon Rahimjonovlar o'zlarining dil so'zlari bilan ishtirok etishdi.



So'ngra institutimiz professori "Turon" Fanlar akademiyasining vitse prezidenti, samimiy inson Hojiakbar Hamidov kelgan mehmonlarga o'zlarining samimiy dil istaklarini bildirib ustoz bilan bog'liq bo'lgan shirin xotiralarini tilga oldilar.

Tadbir nihoyasida "Turon" fanlar akademiyasining prezidenti, tarix fanlari doktora, professor Haydarbek Nazirbekovich Bobobekov va akademiyaning vitse prezidenti Hojiakbar Hamidovlar ustoz Rahimboy Jumaniyozovga "Turon" FAning akademigi diplomini, guvohnoma va ko'krak nishonini topshirdilar.

Davra ahli bu rag'bat va ma'naviy tadbirdan mamnun holda uzluksiz tarzda qarsaklar bilan olqishlab turishdi.

**"Gumanitar fanlar" kafedrasining o'qituvchisi Bahridin Muqimov axboroti**

**Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov**